

KESARCHA KESISH OPERATSIYASIDAN KEYINGI “NISHA” SIMPTOMI VA IKKILAMCHI BEPUSHTLIK

¹Negmadjanov B.B,

²Nasimova Z.S,

³Sonoqulova M.O,

⁴Rabbimova G.T,

⁵Nasimova N.R

2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444993>

Dolzarbli. Birinchi marta 1961-yilda L. Poidevin bachadonning paski segmentida opertasiyadan keyingi chandiq sohasida uchburchaksimon botiq borligini ta’kidlab o‘tgan. Adabiyotlarda bachadon devorida “nisha”, “istmoselle”, “qopcha”, “tokcha” kabi atamalarni uchratish mumkin. (O. N Nojnitseva, V. F Bejenar 2020-yil).

“Nisha” simptomi bu-bachadon endometriyasida 1 mm va undan yuqori anexogen chuqurcha paydo bo‘lishidir. Bachadondagi “Nisha” chandig‘i hosil bo‘lish jarayonini tushuntirib beruvchi bir necha gipotezalar mavjud. Ammo hozirgacha uning patogenezi noaniq qolmoqda. Hamda uning diagnostikasi uchun aniq bir algoritm ham ishlab chiqilmagan. Shuningdek mutaxassislarning “Nisha” simptomini davolash zarurati haqidagi fikrlari bahsligicha qolmoqda (O. N Nojnitseva, V. F Bejenar 2020-yil).

Tadqiqot maqsadi. Bachadonda kesar kesish operatsiyasidan keyin paydo bo‘lgan “nisha” simptomining diagnostikasini gisteroskopiya yordamida takomillashtirish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot Samarqand shahar Perinatal markazi va “Innova” xususiy klinikasi qoshida o‘tkazildi. Jami bo‘lib tadqiqotga 30 nafar reproduktiv yoshdagi, anamnezida kesarcha kesish operatsiysi bo‘lgan ayollar kirgizildi. Ishlatilgan emperik usullar: Umumiy tekshirish metodlari (umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, qonning biokimyoviy tahlili, koakulogramma); UTT; Gisteroskopiya.

Ma’lumotlarni statistik tahlil qilish uchun SPSS to'plami ishlatilgan.

Tadqiqot natijalari. Barcha bemorlarda oldingi operatsiyadan keyin bachadon chandig'i bo'lgan, 86,7% da 1 ta chandiq, qolganlarida 2 va undan ortiq chandiq bor edi. Tadqiqotimizda ishtirok etgan ayollarda chandiq sohasini baholash uchun biz so'rov o'tkazdik. Umumiy ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, so'rov maxsus savollardan (chandiq haqida) iborat edi.

Barcha ayollar ultratovush tekshiruvidan Sonoscape-ay 1000 apparatida (Janubiy Koreya) 3,5 MGts chastotali datchik bilan transabdominal va

transvaginal yo'llar orqali o'tkazildi. Bunda bachadon o'lchamlari, topografik joylashishi, konturlari, endometriy va miometriy qalinligi va strukturasi, exogenligi hamda chandiq sohasi, bachadon bo'shlig'i holati baholandi.

Umumiy qilganda UTT orqali ayollarga quyidagi (jadval 1) tashxislar qo'yildi:

Jadval 1
UTT da qo'yilgan tashxislar tahlili

Tashxis	Abs	%
Chandiq sohasida o'zgarish	14	46,67%
Chandiq sohasida mahalliy torayish	8	26,7%
Surunkali endometrit	12	40.0%
Surunkali salpingoofarit	5	16.67%
Tuxumdon kistasi	5	16.67%
Bachadon miomasi	5	16.67%
Bachadon bo'shlig'ida yod jism	19	63.3%
Kichik tos venalarining varikoz kengayishi	3	10.0%
Surunkali endoservitsit	7	23.33%
Tuxumdonlarning polikistoz o'zgarishi	3	10.0%


Gisteroskopiya barcha ayollarda hayz siklining 9-10- kuniga umumiy og'riqsizlantirish ostida maxsus uskunalar orqali (Karl Stors (Germaniya) apparati yordamida umumiy qoidalarga muvofiq holda) Perinatal markazning endoginekologiya bo'limida, hamda "Innova" xususiy klinikasida shartnoma asosida o'tkazildi. Aseptik sharoitda bachadon bo'yni ko'zgular orqali ochilgan va pulevkalar yordamida qistirilgan. Bachadon bo'yni kengaytirilgandan so'ng, gisteroskop kiritilgan. Servikal kanal, bachadon bo'shlig'i, endometriy qavati, endoserviks, bachadon naylari sohasi ko'zdan kechirilgan. Ayniqsa kesarcha kesish amaliyotidan keying chandiqqa alohida e'tibor qaratilgan.

Gisteroskopiya natijalariga ko'ra aksariyat ayollarda bachadon bo'shlig'i patologiyasi va yod jismi aniqlangan. O'rganilgan ayollardan 22 nafarida (73.3%) bachadon ichida ipak tolali choklar aniqlangan va gisteroskopiya davomida ular olib tashlangan. Bundan tashqari o'rganilgan ayollarning barchasida chandiq sohasi deformatsiyasi kuzatilgan, chandiqning mahalliy torayishi ya'ni "nisha" simptomi 24 nafar ayollarda (80%) aniqlangan. Uning ifodalanishiga ko'ra ushbu ayollarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ya'ni "nisha"

simptomi belgilari aniq ifodalangan ayollar (8-33.3%) va mahalliy torayishning belgilari mavjud lekin kuchli ifodalanmagan ayollar (16-67.7%).

Bundan tashqari gisteroskopiya davomida endometriy mikropolipozi (56,67%), surunkali endometrit (23,33%), platsentar polip (3.33%), Asherman sindromi (6,67%), ovuli Naboti (16,67%), endometrioz o'choqlari (10%) kabi patologiyalar ham aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi algoritm ishlab chiqilgan:



Xulosa. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda "Tokcha" (nishe) simptomini tashxislash algoritmi subyektiv va obyektiv tekshiruvlar, keyin ultratovush tekshiruvini, keyin matematik model yordamida hisoblash va gisteroskopiya dan foydalanish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Gisteroskopiya orqali ayollarning 80% "tokcha" simptomi tashxislangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Беженарь В. Ф., Ножницева О. Н. Методика предгравидарной оценки состояния рубца на матке после кесарева сечения //Акушерство и гинекология Санкт-Петербурга. – 2018. – №. 2. – С. 5-6.
2. Макиян З. Н. и др. Новый метод хирургического лечения несостоятельности рубца на матке после кесарева сечения с помощью внутриматочного манипулятора с желобом //Акушерство и гинекология. – 2020. – Т. 2. – С. 104-10.

3. Ножничева О. Н., Беженарь В. Ф. Ниша рубца на матке после кесарева сечения-новая проблема репродуктивного здоровья женщины //Журнал акушерства и женских болезней. – 2020. – Т. 69. – №. 1. – С. 53-62.
4. Тилявова С. А. MODERN APPROACHES TO THE DIAGNOSTICS AND TREATMENT OF URINATION DISTURBANCES IN PREMENOPAUSAL WOMEN //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 3.
5. Худоярова Д. Р., Кобилова З. А., Шопулотов Ш. А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЕСТЕСТВЕННОЙ ФЕРТИЛЬНОСТИ У ЖЕНЩИН С БЕСПЛОДИЕМ, ВЫЗВАННЫМ ЭНДОМЕТРИОЗОМ //ЗДОРОВЬЕ, ДЕМОГРАФИЯ, ЭКОЛОГИЯ ФИННО-УГОРСКИХ НАРОДОВ HEALTH, DEMOGRAPHY, ECOLOGY. – С. 453.
6. Худоярова Д. Р., Шопулотова З. А. Optimization of management of pregnant women with chronic pyelonephritis //Узбекский медицинский журнал. – 2022. – Т. 3. – №. 3.
7. Шопулотова З., Солиева З. ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ УЗИ У БЕРЕМЕННЫХ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПИЕЛОНЕФРИТЕ //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 223-227.
8. Щукина Н. А. и др. Основные причины формирования несостоятельного рубца на матке после кесарева сечения //Rossiiskii Vestnik Akushera-Ginekologa. – 2018. – Т. 18. – №. 4.
9. Alimdjanovich R. J., Khairullaevna O. N., Normuratovich N. A. CORRECTION OF PSYCHOLOGICAL STRESS IN CHILDREN WITH NON-PHARMACOLOGICAL METHODS OF DENTAL ADMISSION //Archive of Conferences. – 2021. – С. 108-114.
10. Amirzoda T. S. Intrauterine infection and its consequences //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1487-1490.
11. Amirzoda T. S. MEDICAL ABORTIONS //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 1-4.
12. Amirzoda T. S. Infertility on the background of endometriosis new opportunities //Academia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 06. – С. 277-279.
13. Jumayeva N., Abdurakhmonov G., Shopulotova S. INNOVATIONS IN TEACHING OF MATHEMATICS //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1142-1147.
14. KHUDOYAROVA D. R. et al. ASSESSING THE QUALITY OF WOMEN'S LIFE OF REPRODUCTIVE AGE WITH SURGICAL MENOPAUSE //БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ. – 2020. – С. 48.

15. Khudoyarova D. S. D. R., Tilavova S. A., Shopulotova Z. A. MANIFESTATIONS OF EXAMINATION OF CHRONIC PYELONEPHRITIS IN PREGNANT WOMEN (CLINICAL CASE) //Thematics Journal of Microbiology. – 2022. – T. 6. – №. 1.
16. Tilyavova S. A., Karimova G. S. Realities Of Time. Chronic Gender Inflammation And Pelvic Pain //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – T. 7. – №. 03. – C. 2020.
17. Rakhimovna K. D., Abdumuminovna S. Z. The role of staphylococcal infection in the structure of inflammatory diseases //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 1180-1183.
18. Rakhimovna K. D., Abdumuminovna S. Z. OVERCOMING POSTOPERATIVE PAIN SYNDROME AFTER GYNECOLOGICAL SURGERY //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 06. – C. 117-120.
19. Rakhimovna K. D., Abdumuminovna S. Z. Traumatization of the genital organs //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 06. – C. 241-243.
20. Shavkatova G. S., Xudoyarova D. R., Shopulotova Z. A. METABOLIK SINDROM-ZAMONAVIY JAMIYATNING MUAMMOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 486-491.